

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOŠKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



SIMON KARIMOV NOMIDDI
TOŠKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI
1955

TDTU
TOŠKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI
1955

TJU
TOSHKENT DAVLAT
ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabeck Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekomunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faoliytkni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umakulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lif xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo Shokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullahov Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Нельматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Фанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abdurahim Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budgetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamjanova	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity	258
Shamshinur Yakubova	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari	263
Ayubov Ilyos Ilhomovich	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish	268
Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili	274
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati	282
Sohibova A'loxon Zafarjon qizi	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamlı kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari	292
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish	301
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Sport maktabalaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	306
Qon'irbayev Dastan	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в Узбекистане	311
Салимов Шерзод Бахтиёрович	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis	316
Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditи uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish	326
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR AUDITI UCHUN TAVAKKALCHILIKKA ASOSLANGAN BAHOLASH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Audit" kafedrasи assisteni

ORCID: 0009-0002-2427-1633

Annotatsiya: Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar audit uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish masalasi tadqiq etilgan. Tadqiqotda risk indikatorlari asosida ballik tizim yaratilib, u 5 ta real sektor aksiyadorlik jamiyatni misolida sinovdan o'tkazilgan. Model amaliyoti shuni ko'rsatdiki, tavakkal darajasiga asoslangan audit strategiyasi auditorlik rejasini optimallashtirishga, resurslarni to'g'ri taqsimalashga va audit xulosasining aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy instrumentlar, audit, risk indikatorlari, tavakkal darjasasi, ballik baholash, audit strategiyasi.

Abstract: This article explores the development of risk-based evaluation criteria for auditing financial instruments in joint-stock companies. A scoring model based on risk indicators was developed and tested on five real-sector enterprises. The findings reveal that a risk-oriented audit strategy improves the effectiveness of resource allocation and enhances the reliability of audit conclusions.

Keywords: financial instruments, audit, risk indicators, risk level, scoring assessment, audit strategy

Аннотация: В статье рассматривается разработка критериев оценки аудита финансовых инструментов на основе уровня риска в акционерных обществах. На основе системы риск-индикаторов разработана балльная модель, апробированная на примере 5 предприятий реального сектора. Результаты исследования показывают, что риск-ориентированный подход позволяет повысить обоснованность аудиторских выводов и оптимизировать распределение ресурсов.

Ключевые слова: финансовые инструменты, аудит, риск-индикаторы, уровень риска, балльная оценка, стратегия аудита.

KIRISH

Moliyaviy instrumentlar zamonaviy aksiyadorlik jamiyatlarining eng asosiy resurslaridan biri bo'lib, ularning to'g'ri hisobga olinishi va samarali auditni korxonalarining moliyaviy shaffofligi hamda investor ishonchini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar ko'pincha murakkab tuzilmaga ega bo'lib, ularni baholash va audit qilishda tavakkalchilik darajasi yuqori bo'ladi. Shu bois, xalqaro va milliy miqyosda bu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda.

IAASB, ICAI va Hong Kong CPA kabi tashkilotlar moliyaviy instrumentlar auditni uchun professional shubha, murakkablikning baholanishi hamda nazorat mexanizmlari ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Masalan, IAASB (2020-yil) ta'kidlashicha, murakkab moliyaviy vositalarni audit qilishda "professional skepticism" va maxsus tayyorgarlik zarur bo'ladi [1]. Xuddi shunday, Milad Hamo va Hamdan (2023-yil) IFRS 9 asosida ishlab chiqilgan audit dasturining valyuta risklari va kredit yo'qotishlarini baholashdagi ahamiyatini asoslab beradi [4].

O'zbekiston olimlarining izlanishlari ham bu borada muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda. Rizakulov A. A. (2022-yil) moliyaviy instrumentlar hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar bergan bo'lsa [10], Nuraliyev B. B. esa risk mezonlariga asoslangan audit modelini ishlab chiqish g'oyasini ilgari surgan [11].



Biroq mavjud adabiyotlar tahlilidan ko'rinaradiki, bu ishlar asosan umumiylar bilan cheklangan, amaliyotda mezonlashtirilgan audit modellarini ishlab chiqish yoki xavf indikatorlarini aniq tizimlashtirish masalalari hali to'laqonli yoritilmagan.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlariga xos bo'lgan xavf turlari – masalan, kredit risklari, derivativlar bilan bog'liq majburiyatlar yoki kapital bozoridagi volatilliklar – alohida tahlil qilinmagan. Risklar bahosi uchun sonli mezonlar, tavakkal darajalari bo'yicha ballash tizimi yoki auditni avtomatlashtirish imkoniyatlari ham ilmiy izlanishlardan chetda qolgan.

Mazkur maqola ana shunday bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi. Uning asosiy maqsadi – aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditni riskga asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy qilish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Bu orqali milliy audit tizimi xalqaro standartlarga moslashadi, auditorlik xulosalarini yanada asosli bo'ladi va audit natijalarining ishonchliligi oshadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy instrumentlar auditni bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, ayniqsa riskga asoslangan yondashuvlar, xalqaro va milliy miqyosda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. IAASB tomonidan ishlab chiqilgan International Auditing Practice Note 1000da auditorlar moliyaviy instrumentlarning murakkabligi va noto'g'ri bayon etilish xavfi tufayli "professional shubha"ni chuqurlashtirishi zarurligi ta'kidlanadi:

"Auditing financial instruments requires a heightened level of professional skepticism and specialized knowledge due to their complexity and susceptibility to misstatement" [1].

Hong Kong CPA (2020-yil) tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmada moliyaviy instrumentlar auditni doirasida auditning muvaffaqiyati — menejment tomonidan kiritilgan ma'lumotlar va baholash modellarining asoslarini har tomonlama tahlil qilish bilan bog'liq ekani ta'kidlanadi [2]. ICAI (Hindiston) esa auditorlar uchun quyidagi ogohlantirishni beradi: "Auditors must assess whether fair value measurements are based on observable inputs or rely heavily on management assumptions, which increases audit risk" [3].

Milad Hilal Hamo va Khawla H. Hamdan (2023-yil) o'z tadqiqotida IAPN 1000 asosida moliyaviy aktivlar uchun maxsus audit dasturini ishlab chiqib, quyidagicha xulosa beradi: "The proposed audit program provides clear procedures for each item under IFRS 9, IFRS 7, and IAS 32, helping auditors assess expected credit losses and valuation risks" [4].

AUDITHOW (2023-yil) platformasida e'lon qilingan maqolada moliyaviy instrumentlar auditni 10 ta asosiy xavf (misclassification, fair value, impairment risk va h.k.) va 6 ta audit assertions (existence, valuation, completeness) tizimli tarzda tahlil qilinadi [5].

Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Audit Checklist for Financial Instruments hujjatida esa "cascade audit" yondashuvi tavsya etiladi, ya'ni audit jarayoni moliyaviy vositalarning barcha darajalarida — boshqaruv organidan to moliyaviy vositachigacha — bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerakligi ko'rsatilgan [6].

Rossiyalik olim V. V. Kovalev auditorlik faoliyatida nafaqat moliyaviy instrumentlar to'g'ri klassifikatsiya qilinishi, balki ularning bozor sharoitida qadrsizlanish ehtimolini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi: "Аудитор должен не только проверять правильность классификации финансовых инструментов, но и оценивать вероятность их обесценения в условиях нестабильного рынка" [7].

Qozog'istonlik A. K. Zhakupov esa bank sektorida moliyaviy instrumentlar auditni uchun "bozor volatilligi va ichki nazorat zaifliklariga asoslangan erta ogohlantiruvchi indikatorlar"ni ishlab chiqqan va ularni amaliyotga joriy etishni taklif etadi [8].

Belaruslik N. A. Karpovalich esa xalqaro standartlar bilan milliy qonunchilik o'rtaсидаги тафовутларни тahlil qilib, moliyaviy instrumentlar auditni uchun yagona metodik yondashuv zarurligini asoslaydi [9].

Mekhmonov S. U. va Temirkhanova M. J. (2020-yil) ichki auditning xalqaro standartlarga mosligi va uning risklarni erta aniqlashdagi o'rnini tahlil qilib, ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar bergen [12].

Rakhmatov J. U. (2020-yil) esa O'zbekistonda audit faoliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, xususan, riskga asoslangan audit tizimining joriy etilishi bo'yicha takliflar bergen [13].

EPRA IJMR jurnalida chop etilgan maqolada Rakhmatov J. U. O'zbekistonda audit faoliyatining rivojlanishida xalqaro standartlar asosida metodik yondashuvlar ishlab chiqilayotganini ta'kidlaydi [10].

O'zbekiston Moliya vazirligi va Audit palatasi tomonidan 2023-yilda ishlab chiqilgan metodik ko'rsatmlarda esa moliyaviy instrumentlar auditni bo'yicha risk indikatorlari va audit mezonlari belgilangan bo'lib, ular milliy amaliyotga moslashtirilgan [11].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda “Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditi uchun riskga asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish” mavzusi doirasida analitik va amaliy yondashuv uyg'unlashtirildi. Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi — riskga asoslangan audit kontsepsiyasini milliy amaliyotga moslashtirish va mezonlashtirishdan iborat. Xalqaro (IAASB, IFRS 9, ISA 330) va milliy normativ-huquqiy hujjatlar asosida moliyaviy instrumentlar auditi bo'yicha mavjud metodologiyalar, risk turlari hamda baholash mezonlari chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, ilgari o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida metodik bo'shlqlar aniqlab olindi.

Toshkent shahridagi 5 ta yirik aksiyadorlik jamiyatining 2021–2024-yillardagi moliyaviy hisobotlari va auditorlik xulosalari o'rganildi. Ushbu hisobotlar asosida moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq risklar identifikatsiya qilindi va tahlil qilindi.

Sohadagi 15 nafar tajribali auditor va buxgalterning fikrlari asosida potensial xavf mezonlari shakllantirildi. Ular quyidagilardan iborat: baholashda subyektivlik darajasi, bozor o'zgaruvchanligi, hujjatlashtirishdagi nomuvofiqliklar, qarz shartlarining murakkabligi va boshqa omillar. Har bir indikator uchun ball tizimi asosida tavakkal darajasi ishlab chiqildi.

Ushbu indikatorlar asosida moliyaviy instrumentlar auditi uchun uch bosqichli risk reyting tizimi (past, o'rtacha, yuqori) shakllantirildi. Bu tizim auditorga audit strategiyasini moslashuvchan tarzda tanlash, vaqt va resurslarni risklarga nisbatan samarali taqsimlash imkonini beradi.

Yuqorida ko'rsatilgan kompaniyalarning real moliyaviy ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan model sinovdan o'tkazildi va audit strategiyasini optimallashtirishda 23 % gacha tejamkorlikka erishilganligi qayd etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida Toshkent shahrida faoliyat yurituvchi real sektor vakili bo'lgan 5 ta yirik aksiyadorlik jamiyatining 2021–2024-yillardagi moliyaviy hisobotlari hamda ularni tekshirgan auditorlik tashkilotlarining xulosalari chuqur tahlil qilindi. Tanlov korxonalarining har biri moliyaviy instrumentlardan faol foydalanishi va ularga oid hisob siyosatining ochiqligi bilan ajralib turadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, korxonalarda qo'llanilayotgan audit metodikasi asosan umumiy standart protsedralarga asoslangan bo'lib, moliyaviy instrumentlarga xos individual xavflarning tizimli baholanishi cheklangan. Shu asosda ekspert auditorlar ishtirokida 15 ta xavf indikatori ishlab chiqildi. Ularga quyidagilar kiritildi: bozorga mos baholashdagi noaniqlik, hisob siyosatidagi tafovutlar, hujjatlashtirishdagi chalkashliklar, kredit shartnomasining murakkabligi, valyuta kursi beqarorligi va derivativlarning yoritilmamasligi. Har bir indikator 0 dan 5 gacha ballik tizimda baholandi, bu esa har bir korxonada moliyaviy instrumentlar bo'yicha past, o'rtacha yoki yuqori tavakkal darajasini aniqlash imkonini berdi.

Amaliyotdagi kuzatuvlar:

3 ta aksiyadorlik jamiyatida auditorlar tomonidan “kam tavakkal” deb baholangan holatlar indikatorlar asosida yuqori xavfli deb topildi;

2 ta jamiyatda kredit shartlarining murakkabligi va bozordagi noaniqliklar asosiy xavf omili sifatida belgilandi;

Audit rejalari tavakkal darajalariga moslab qayta shakllantirilganida, tekshiruv samaradorligi va aniqligi 23 % ga oshgani qayd etildi.

Bundan tashqari, auditorlar o'ttasida o'tkazilgan so'rovnomalari shuni ko'rsatdiki, indikatorlar tizimi orqali shakllantirilgan audit modeli ularga aniqlik, ustuvorlik va tizimliikni ta'minlab berdi. Model audit xulosalarining asoslanganligini kuchaytirish bilan birga, tekshiruv vaqtini ham optimallashtirdi.

Tahlil uchun tanlab olingan 5 ta aksiyadorlik jamiyatining 2021–2024 yillardagi moliyaviy hisobotlari va auditorlik xulosalari asosida quyidagi holatlar aniqlangan.(1-jadval)

1-jadval:Moliyaviy instrumentlar bo'yicha risk baholash natijalari1

Nº	AJ nomi	Soha	Moliyaviy instrumentlar	Aniqlangan asosiy xavf indikatorlari	Tavakkal darajasi
1	“UzAuto Motors” AJ	Avtomobilsozlik	Obligatsiyalar, forward shartnomalar	Baholashda subyektivlik, derivativlar yoritilmagan	Yuqori
2	“O'zbekneftgaz” AJ	Energetika	Valyuta kreditlari, derivativlar	Valyuta risklari, hujjatlashtirishdagi chalkashliklar	Yuqori

1 Muallif ishlammasi



3	“O’zdonmahsulot” AJ	Qishloq xo’jaligi	Milliy valyutadagi qarz majburiyatları	Kredit shartlarining murakkabligi, baholashdagi tafovutlar	O’rtacha
4	“Uzbektelekom” AJ	Telekom-munikatsiya	Uzun muddatli qarzlar	Hisob siyosatidagi nomuvofiqlik, risklar ochiqlanmagan	O’rtacha
5	“O’zsanoat qurilish materiallari” AJ	Qurilish sanoati	Lizing shartnomalari, investitsion aktivlar	Baholash usuli noaniqligi, audit xulosasida risk ko’rsatilmagan	Yuqori

“UzAuto Motors” AJning 2022-yilgi moliyaviy hisobotida 1 200 milliard so‘mlik obligatsiyalar bozor bahosida emas, balki balans qiymatida aks ettirilgan. Ushbu holat bozorga mos baholash indikatorida 4 ball bilan baholandi.

“O’zbekneftgaz” AJning 2023-yilgi moliyaviy hisobotida xorijiy valyutadagi kreditlar bo‘yicha valyuta risklari alohida ochiqlanmagan. Auditorlik xulosasida ham ushbu xavf qayd etilmagan. Natijada indikator bahosi 5 ball deb belgilandi.

“O’zdonmahsulot” AJda 2021–2022-yillarda kredit shartnomalarining muddati va foiz stavkalari to‘liq yoritilmagan. Ushbu kamchilik hujjatlashtirishdagi chalkashliklar indikatorida 3 ball bilan baholandi.(2-jadval)

2-jadval:Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar bo‘yicha risk indikatorlari asosida ballik baholash2

Nº	AJ nomi	Baholangan indikatorlar soni	Umumiy ball (maks. 35)	O’rtacha ball	Tavakkal darajasi
1	“UzAuto Motors” AJ	7	26	3.71	Yuqori
2	“O’zbekneftgaz” AJ	7	24	3.43	Yuqori
3	“O’zdonmahsulot” AJ	7	18	2.57	O’rtacha
4	“Uzbektelekom” AJ	7	17	2.43	O’rtacha
5	“O’zsanoat qurilish materiallari” AJ	7	25	3.57	Yuqori

“Uzbektelekom” AJning 2024-yilgi moliyaviy hisobotida derivativ vositalar mavjud bo’lsa-da, ularning moliyaviy hisobotda to‘liq aks ettirilmagani aniqlangan. Bu holat derivativlar yoritilishi indikatorida 4 ball bilan baholandi.

“O’zsanoatqurilishmateriallari” AJning 2023-yilgi auditorlik xulosasida moliyaviy instrumentlar bo‘yicha risk darajasi alohida ko’rsatilmagan. Ushbu kamchilik auditorlik xulosasida risk ko’rsatilganligi indikatorida 5 ball bilan baholandi.

Baholash metodikasi:

Har bir indikator 0 dan 5 gacha ball bilan baholangan (0 – xavf yo‘q, 5 – yuqori xavf).

O’rtacha ball 3.0 dan yuqori bo’lsa – yuqori tavakkal,

2.0–3.0 oralig‘ida – o’rtacha,

2.0 dan past bo’lsa – past tavakkal deb baholandi.

Baholashda quyidagi indikatorlar hisobga olingan:

- bozorga mos baholash,
- hisob siyosati,
- derivativlar yoritilishi,
- valyuta risklari,
- hujjatlashtirish sifati,
- kredit shartlari murakkabligi,
- auditorlik xulosasida risk ko’rsatilganligi.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR



Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditi amaliyotida mayjud yondashuvlar ko'pincha umumiy shaklda olib borilmoqda. Risk indikatorlari asosida tizimli va ballik baholash mexanizmlarining mavjud emasligi esa auditorlik xulosalarining aniqligi va chuqurligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, bank bo'lмаган 5 ta yirik aksiyadorlik jamiyati kesimida o'tkazilgan sinovlar natijasida moliyaviy instrumentlarga oid tavakkal darajasi 60 foiz hollarda — yuqori, 40 foiz hollarda — o'rtacha ekanligi aniqlangan. Ishlab chiqilgan risk indikatorlari asosida ballik baholash modeli har bir aksiyadorlik jamiyati bo'yicha aniq mezonlar asosida audit strategiyasini shakkantirish, vaqt va resurslarni samarali taqsimlash imkonini berdi. Ustunli va doirali grafik tahlillar orqali aniqlanishicha, "UzAuto Motors", "O'zsanoatqurilishmateriallari" va "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyatlarida xavf ballari eng yuqori bo'lib, bu auditorlar uchun jiddiy ogohlantiruvchi signal sifatida xizmat qilmoqda. Tavakkalchilik indikatorlari asosida mezonlashtirilgan audit modelini milliy amaliyotga tatbiq qilish zarur, chunki bu model auditorlik faoliyatini vaziyatga mos strategik rejalashtirish imkonini beradi. Shuningdek, moliyaviy instrumentlar auditni bo'yicha auditorlik metodologiyalarini soha va instrument turlariga qarab differensiallashtirish taklif etiladi (masalan, derivativlar, valyuta kreditlari, obligatsiyalar uchun alohida indikatorlar majmuasi). Xavf indikatorlari va ularning ballik mezonlari Moliya vazirligi hamda Audit palatasi tomonidan tasdiqlanadigan amaliy ko'rsatmalarga kiritilishi lozim. Auditorlik tashkilotlari uchun korxonaning risk profiliga asoslangan audit rejalashtirish dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Shuningdek, auditorlar malakasini oshirish kurslarida tavakkalchilik indikatorlari bilan ishlashga oid amaliy mashg'ulotlarni joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. International Auditing and Assurance Standards Board. International Auditing Practice Note 1000: Special Considerations in Auditing Financial Instruments. – New York: IFAC, 2020. – 48 p.
2. Hong Kong Institute of Certified Public Accountants. Auditing Financial Instruments: Guidance Note. – Hong Kong: HKICPA, 2020. – 36 p.
3. Institute of Chartered Accountants of India. Audit of Complex Financial Instruments. – New Delhi: ICAI Publications, 2021. – 52 p.
4. Hamo M. H., Hamdan K. H. Developing an Audit Program for Financial Instruments under IFRS 9 // International Journal of Accounting and Finance. – 2023. – Vol. 13, No. 2. – P. 112–128.
5. AUDITHOW. Key Audit Risks in Financial Instruments. – [Elektron resurs]. – Rejim kirish: <https://audithow.com/financial-instruments-audit-risks>
6. European Commission. Audit Checklist for Financial Instruments. – Brussels: EC Publications, 2021. – 27 p.
7. Ковалев В. В. Финансовый анализ: управление капиталом, выбор инвестиций, анализ отчетности. – М.: Финансы и статистика, 2020. – 416 с.
8. Жакупов А. К. Аудит финансовых инструментов в банковском секторе Казахстана. – Алматы: Экономика, 2021. – 144 с.
9. Карпович Н. А. Методические подходы к аудиту финансовых инструментов в Республике Беларусь // Финансовый контроль. – 2022. – № 3. – С. 45–52.
10. Rakhmatov J. U. Methodological Approaches to Risk-Based Audit in Uzbekistan // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. – 2021. – Vol. 7, Issue 6. – P. 54–60.
11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Audit palatasi. Moliyaviy instrumentlar auditini amalga oshirish bo'yicha metodik ko'rsatma. – Toshkent, 2023. – 29 b.
12. Mexmonov S. U., Temirkhanova M. J. Ichki audit tizimining samaradorligi va xalqaro standartlarga mosligi // Iqtisodiy fanlar jurnali. – 2020. – № 4. – B. 87–94.
13. Rahmatov J. U. Audit faoliyatida innovatsion yondashuvlar // Moliya va audit. – 2020. – № 2. – B. 33–38.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100